OG`IR BRONXIAL ASTMA KLINIKASIDA MIKROBIOLOGIK MARKERLARNING PROGNOSTIK AHAMIYATI

Satliqov R.K
Abdusharipova N.B
Urganch davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston.

Kirish. Bronxial astma nafas yo‘llarining surunkali yallig‘lanish kasalligi bo‘lib, uning og‘ir shakllari tez-tez xurujlar, hayot sifatining pasayishi va shoshilinch tibbiy yordamga murojaatlar bilan kechadi. So‘nggi yillarda nafas yo‘llari mikrobiotasining bronxial astma patogenezi va klinik fenotiplarini shakllantirishdagi roli tobora ko‘proq o‘rganilmoqda. Ayniqsa, Staphylococcus aureus, Haemophilus influenzae va Moraxella catarrhalis kabi mikroorganizmlarning persistensiyasi nafas yo‘llaridagi yallig‘lanish jarayonini kuchaytirishi va kasallik nazoratining yomonlashuvi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Og‘ir bronxial astmada mikrobiologik markerlarni aniqlash kasallikning kechishini oldindan baholash, tez-tez xuruj qiluvchi bemorlarni ajratish hamda individual davolash taktikasini tanlash uchun muhim prognostik ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi — Og‘ir bronxial astma bilan kasallangan bemorlarda Staphylococcus aureus, Haemophilus influenzae va Moraxella catarrhalis kabi mikrobiologik markerlarning uchrash chastotasini aniqlash hamda ularning kasallikning klinik kechishi, xurujlar chastotasi va bronxial obstruksiya og‘irligi bilan prognostik bog‘liqligini baholash.

Materiallar va usullar. Tadqiqotga og‘ir bronxial astma tashxisi qo‘yilgan bemorlar jalb qilinadi. Bemorlarning yoshi, jinsi, kasallik davomiyligi, yil davomida bronxial astma xurujlari soni, shoshilinch tibbiy yordamga murojaatlar va gospitalizatsiyalar soni o‘rganildi.

Bronxial astmaning klinik holatini baholashda ACT (Asthma Control Test), nafas funksiyasini baholashda spirometriya ko‘rsatkichlari — FEV1, FVC va FEV1/FVC aniqlandi.

Mikrobiologik tekshiruv uchun balg‘am yoki pastki nafas yo‘llaridan olingan klinik materialdan foydalanildi. Staphylococcus aureus, Haemophilus influenzae va Moraxella catarrhalisni aniqlash bakteriologik ekish usullai yordamida amalga oshirildi.

Bemorlar mikrobiologik natijalarga ko‘ra mikroorganizmlar aniqlangan va aniqlanmagan guruhlarga ajratiladi. Mikroorganizmlarning mavjudligi bilan yil davomida xurujlar soni, gospitalizatsiya, ACT va FEV1 ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik jihatdan baholandi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari og‘ir bronxial astma bilan kasallangan bemorlarda nafas yo‘llari mikrobiotasining o‘zgarishi kasallikning klinik kechishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Staphylococcus aureus, Haemophilus influenzae va Moraxella catarrhalis aniqlangan bemorlarda bronxial astma nazoratining yomonlashuvi, xurujlarning ko‘proq takrorlanishi va bronxial obstruksiya ko‘rsatkichlarining pasayishi kuzatildi.

Ayniqsa, mikroorganizmlarning persistensiyasi bilan FEV1 pasayishi, ACT ko‘rsatkichlarining kamayishi, yil davomida xurujlar va gospitalizatsiyalar sonining ortishi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanishi ushbu mikrobiologik markerlarning prognostik ahamiyatini ko‘rsatdi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Mikrobiologik markerlar ichida Staphylococcus aureus va Haemophilus influenzaening aniqlanishi og‘irroq klinik fenotip bilan, Moraxella catarrhalis esa nafas yo‘llaridagi surunkali yallig‘lanish va kasallik nazoratining buzilishi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Shu sababli mikrobiologik tekshiruv natijalari og‘ir bronxial astmada kasallikning noxush kechish xavfini baholashda qo‘shimcha prognostik indikator sifatida qo‘llash maqsadga muofiq.

Xulosa. Og‘ir bronxial astma bilan kasallangan bemorlarda nafas yo‘llarining mikrobiologik holatini baholash kasallikning klinik kechishini prognozlashda muhim ahamiyatga ega. Staphylococcus aureus, Haemophilus influenzae va Moraxella catarrhalis kabi mikroorganizmlarning aniqlanishi kasallik nazoratining pasayishi, bronxial obstruksiyaning kuchayishi va bronxial astma xurujlarining takrorlanish xavfi yuqoriligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Mikrobiologik markerlarni klinik va funksional ko‘rsatkichlar bilan birgalikda baholash og‘ir bronxial astmaning noxush prognozini erta aniqlash va individual davolash taktikasini shakllantirish imkonini beradi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.